

Proceedings of the MMIT'25 International Conference



MMIT'25

International Conference
29 May 2025, Tashkent,
Uzbekistan www.mmit.tiue.uz



Tashkent International University of Education
Turin Polytechnic University in Tashkent

PROCEEDINGS

of the MMIT'25 International Conference

TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARI VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

MODERN METHODS AND INNOVATION
TECHNOLOGIES IN EDUCATION

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
В ОБРАЗОВАНИИ

29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan

MAQOLALAR TO'PLAMI
СБОРНИК СТАТЕЙ



Tashkent International University of Education

PROCEEDINGS

of the MMIT'25 International Conference

Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalar

Modern methods and innovation technologies in education

**Современные методы и инновационные технологии в
образовании**

29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan www.mmit.tiue.uz

MAQOLALAR TO'PLAMI

СБОРНИК СТАТЕЙ

Tashkent 2025

UO'K: 370.1

KBK: 74.00

T 17

Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalar: Xalqaro konferentsiya to'plami / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.I.Baydjanov, R.R.Bekbayev. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 350 b.

Mazkur to'plam "Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalari" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasini o'tkazish to'g'risida "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetining 2025 yil 25 martdagi 01-03-05/4AF-son buyrug'iga asosan o'tkazilgan anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent

Bekbayev Rauf Rustamovich

Bosh muharrir:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

Mas'ul muharrir:

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent

Bekbayev Rauf Rustamovich

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Falsafa kafedrasi professori, f.f.n.

Karimov Rahmat Rahmonovich

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)

Saidova Kamola Uskanbayevna

TIUE Axborot texnologiyalari va matematika kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

Chay Zoya Sergeyevna

Ushbu to'plam "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025 yil 15 iyuldagi 6-sonli majlis qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-139-4

ОГЛАВЛЕНИЕ

Организация образовательного процесса с интеграцией дуального образования и инновационных технологий.....	8
Modern Approaches to Educational Process Organization: Integration of Dual Education and Innovative Technologies	8
Setting up cloud based shared ARMv8 machine for Computer Architecture Education	15
The Working Principle and Polarization Curve of Hydrogen Trucks.....	18
Педагогическая компаративистика в свете глобальных перемен.....	27
Comparative pedagogy in the context of global changes.....	27
Об одной модели использования STEM методологии при организации учебного процесса.....	30
About one model of using STEAM methodology in the organization of the educational process	30
Management Innovation: Shaping the future of Business Management.....	35
O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning huquqiy va amaliy asoslari.....	38
Legal and practical foundations for the development of digital technologies in the activities of public administration of the Republic of Uzbekistan.....	38
LMS - ta'lim jarayonini boshqarish tizimida sun'iy intellekt qo'llanilish.....	46
Application of artificial intelligence in the learning management system LMS	46
Руководитель как лидер профессионального педагогического сообщества	50
The head as the leader of the professional pedagogical community	50
Universitetlardagi tadqiqot va ishlanmalarning ta'lim sifatiga ta'siri.....	54
Impact of university research and development on the quality of education	54
Boshqaruv samaradiligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining roli	60
The role of educational technologies in improving management effectiveness.....	60
Meva brendi pozitsiyasini shakllantirish yo'nalishlari.....	66
Directions for the formation of a fruit brand position	66
Raqamli davrda kitob savdosi: online platformalarning o'zni va afzalliklari.....	68
Book trade in the digital age: the role and advantages of online platforms	68
"Smart home" aqlli uy markaziy boshqaruv tizimida sun'iy ong va Liveness detection texnologiyalari integratsiyasi	72
Integration of Artificial Intelligence and Liveness Detection Technologies in the Central Control System of "Smart Home"	72
Tarmoq xavfsizligini ta'minlashda marshrutlash algoritmlari va protokollari.....	76
Routing algorithms and protocols for ensuring network security	76
Protokollar yordamida VPN tarmoqning xavfsizligini ta'minlash.....	79
VPN network security with protocols	79
Ethics and Education in the Context of Karl Popper's Philosophy.....	82
Mustaqil trayektoriyali obyektlarni qayta identifikatsiyalash masalasi	85
Re-identification problem for objects with independent trajectories	85

Belgilangan hududda rfid teglarining koordinatalarini aniqlash usullari tahlili	89
Analysis of methods for determining the coordinates of rfid tags in the designated area.....	89
O'quv auditoriyalarida shaxslarning holatini chuqur o'rganish orqali baholash uchun dataset yaratish	92
Creating a dataset to evaluate the condition of individuals in educational classrooms through in-depth study	92
Improving Critical Thinking Through Effective Argumentation.....	97
Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy va an'anaviy ta'lim shakllarida o'quv jarayonlarini boshqarish axborot tizimi modellari	99
Models of the information system for managing educational processes in distance and traditional forms of education in higher educational institutions.	99
Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish muammolari .	102
Problems of introducing innovative technologies into the educational process in higher educational institutions.....	102
Bridging pedagogical innovation and practice: a literature review on ict adoption in higher education	105
The Evolution of Digital Payments and Its Impact on Financial Inclusion	112
Sustainable groundwater management - problems and scientific tools.....	116
Doimiy suv berishda yer osti suvlari sathining o'zgarishini modellashtirish.....	119
Modeling the change in groundwater level under constant water supply	119
Suv nasoslar orqali yarim qurg'oqchil hududlarda sug'orish amaliyotlarini uzluksiz olib borish.....	125
Continuous implementation of irrigation operations by water pumps in semi-arid regions	125
ESP32 yordamida mini server qurilmasini yaratishning usul va vositalari.....	130
Methods and tools for creating a mini server device using ESP32	130
Innovation Management: The Impact of AI on Sustainable Development and Technology in Uzbekistan.....	135
Psixodiagnostika metodikalarini psixometrika mezonlari va uning mazmun mohiyatini o'rganish....	140
Study of the criteria of psychometrics of psychodiagnostic methods and its content.....	140
Bulutli texnologiyalar asosida masofaviy ta'lim platformalarining didaktik imkoniyatlari: tahlil va rivojlantirish modeli	146
Didactic capabilities of distance learning platforms based on cloud technologies: analysis and development model	146
Obyektlarni sinflashtirishda xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan baholarni hisoblash algoritmlari	151
Algorithms for calculating estimates based on minimizing errors in object classification	151
Obyektlarni sinflashtirishda xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan baholarni hisoblash algoritmlari.....	158
Algorithms for calculating estimates based on minimizing errors in object classification	158
Hybrid Learning Models Based on ICT: Theoretical and Applied Aspects in Uzbekistan's Higher Education.....	164
Raqamli transformatsiya va kadrlar boshqaruvi: texnologiyalar inson resurslariga munosabatni qanday o'zgartirmoqda?	175

Digital transformation and human resource management: how are technologies changing the attitude towards human resources?	175
Tarix darslarida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda pedagogik texnologiyalar	179
Pedagogical technologies in the formation of intercultural competence in history lessons	179
Yashil iqtisodiyotni innovatsion boshqarishda xavf-xatarlarning ta'siri va uni kamaytirish yo'llari ..	182
Impact of risks in innovative management of the green economy and ways to reduce it	182
Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	186
Modern information communication technologies in education	186
Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning muhandislik ta'limida qo'llanilishi	189
Application of artificial intelligence and automation in engineering education	189
Xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari	191
Prospects for the use of digital technologies in the development of international financial relations .	191
Mathematics in the Treatise by Baha ad-Din al-Amili "The Essence of Arithmetic", his Contemporaries and Followers.....	196
Aerodinamik tahlilda sun'iy intellekt va uch karrali integralning integratsiyasi	204
Integration of artificial intelligence and triple integral in aerodynamic analysis	204
The impact of information technologies and the digital economy on economic development	209
The state of the local internet commerce market and the importance of its development	213
Digital diplomacy and its role in the development of small and medium-sized innovative entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan	216
Zamonaviy ta'limda gadjetlarning roli.....	220
The role of gadgets in modern education	220
Системный подход в управлении госпитальной школой	223
A systematic approach to hospital school management	223
Школа – мастерская гуманности	227
School – workshop of humanity.....	227
Sun'iy intellekt ilovalarining ta'lim jarayonida foydalanilishi	229
Use of artificial intelligence applications in the educational process.....	229
Совершенствование речевой компетенции студентов филологических направлений при помощи дидактических игр.....	233
Enhancing the Speech Competence of Philology Students through Didactic Games	233
ИИ и разработчики: деградация умений или рост эффективности?	236
AI and developers: degradation of skills or increased efficiency?.....	236
Лидерство и стиль управления: как выбрать эффективную стратегию	244
Leadership and Management Style: How to Choose an Effective Strategy.....	244
Модели управления качеством образования в Узбекистане и Сингапуре	248
Educational systems of Uzbekistan and Singapore: historical and contemporary contexts.....	248
Влияние бихевиористских методов на формирование учебной дисциплины.....	255
The influence of behavioral methods on the formation of academic discipline.....	255

ИИ и разработчики: деградация умений или рост эффективности?	258
The Mathematical Legacy of Baha al-Din al-Amili: An Analysis of Problems from the Treatise “Khulasat al-Hisab” (The Essence of Arithmetic)	258
Применение STEAM –подхода в преподавании управленческих дисциплин	262
The use of the STEAM approach in teaching management disciplines	262
Новые ориентиры HR-менеджмента в условиях развития зелёной экономики.....	265
New guidelines for HR management in the context of the development of the green economy	265
Анализ теории обучения Джона Дьюи в прагматизме и экзистенциализме	268
Analyzing John Dewey's learning theory in pragmatism and existentialism	268
Роль искусственного интеллекта в развитии мировой экономики.....	271
The role of artificial intelligence in the development of the global economy.....	271
Использование мультимедийных средств в учебном процессе.....	275
The use of multimedia tools in the educational process.....	275
Сравнительный анализ методов оценивания в истории педагогики.....	278
Comparative analysis of assessment methods in the history of pedagogy	278
Практическое применение когнитивистской теории обучения.....	283
Practical application of cognitive learning theory.....	283
Морфологический анализ каракалпакского языка с помощью нейронных сетей	285
Morphological analysis of the Karakalpak language using neural networks	285
Научно-методические подходы к урокам физической культуры в условиях инклюзивного образования.....	289
Scientific-methodological approaches to physical education lessons in inclusive education	289
Об одной модели модернизации учебного процесса	291
About one model of modernization of the educational process	291
Современные информационно-коммуникационные технологии в образовании: опыт Узбекистана	295
Modern information and communication technologies in education: the experience of Uzbekistan...	295
Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar	298
Modern informationcom-munication technologies in education	298
Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati hamda rivojlanish dinamikasi: Markaziy Osiyo davlatlari misolida	301
The role of foreign investment in the transition to a green economy and development dynamics: the case of Central Asian countries	301
Будущее образования: педагогические теории на стыке истории и цифровых технологий.....	307
The Future of Education: Pedagogical Theories at the Intersection of History and Digital Technologies	307
Разработка интернет-магазина на платформе WordPress: функциональная модель и практическая реализация.....	311
Development of an Online Store on the WordPress Platform: Functional Model and Practical Implementation	311
Проект Yostate: создание онлайн-магазина одежды.....	316

Project Yostate: creating a stylish online clothing store	316
Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt: istiqbollar va amaliy yechimlar	321
Modern information and communication technologies in education and artificial intelligence: prospects and practical solutions.....	321
Применение метода множителей Лагранжа при нахождении условного экстремума функции двух переменных	324
Application of the Lagrange multiplier method in finding the conditional extremum of a function of two variables	324
Современные информационно-коммуникационные технологии в образовании, адаптация персонала к информатизации образовательного процесса	328
Modern information and communication technologies in education, staff adaptation to informatization of the educational process	328
Zamonaviy ta'lim, pedagogika va steam: integrativ yondashuvlarning ilmiy-asosiy tahlili	333
Scientific and basic analysis of modern education, pedagogy and steam: integrative approaches	333
Adabiyotlar ro'yxati.....	335
Tolali optik aloqa tizimlarini tadqiq qilishda qo'llaniladigan paket dasturlar tahlili	336
Analysis of package programs used in the study of fiber optic communication systems	336
GeoUtr dasturida optik kirish tarmoqlari abonentlariga xizmatlar ko'rsatish.....	340
Provision of services to subscribers of optical access networks in the GeoUtr program	340
Globallashuv sharoitida yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari	345
Pedagogical foundations of the formation of ideological immunity in young people in the context of globalization.....	345
Ta'lim muassasalarini boshqarishda ustozlikning roli	349
The role of mentorship in the management of educational institutions	349

GLOBALASHUV SHAROITIDA YOSHLARDA G'OYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xidirov Mirzoxid G'ayratovich

Tashkent International University of Education

E-mail: mirzoxid1987.08@mail.ru

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.225

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalashda g'oyaviy immunitetni shakllantirishda pedagogik va psixologik tadqiqotlar zarurati hamda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning yo'nalishiga doir tahlillar bayon etiladi. Maqola bugungi globalallashuv davrida yoshlarni ongini yot g'oyalardan asrash, turli ekstremistik guruhlarining yoshlar ongini manipulyasiya qilishda turli axborot xurujlarining asl maqsadlarini fosh etish va ularga sog'lom diniy qarashlarni singdirishga qaratilgan dasturlarni ta'lim tizimiga joriy etish zarurati keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogiya, psixologiya, tadqiqot, deradikalizatsiya, radikalizm, mutaassiblik, diniy ekstremizm, terrorizm, jaholat, ma'rifat, davlat siyosati.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Khidirov Mirzokhid Gayratovich

Tashkent International University of Education

E-mail: mirzoxid1987.08@mail.ru

Abstract. This article describes the need for pedagogical and psychological research in the formation of ideological immunity in the education of young people in the context of globalization, as well as the analysis of the direction of research in this direction. The article mentions the need to introduce programs into the education system aimed at protecting the minds of young people from foreign ideas and inculcating them with healthy religious views in today's era of globalization.

Keywords: *religious extremism, terrorism, ignorance, enlightenment, state policy.*

Kirish

Har qanday davlat taraqqiyotini ilm-fansiz tassavvur qilib bo'lmaydi. Davlatning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini va ko'rsatgichlarini ilm-fanga qaratilgan e'tibor va yondashuv darajasiga qarab belgilash mumkin. O'zbekistonda bu borada so'ngi yillarda jamiyat farovonligi va barqarorlik yo'lida eng muhim tamoyil sifatida ilm-fan rivojiga katta e'tibor va imkoniyatlar yaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish joyiz. Ushbu yo'nalishda yana bir muhim jihat, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish bilan bir qatorda, yoshlar o'rtasida radikalizm va mutaassiblikni oldini olish, deradikalizatsiya jarayonini faol targ'ib qilish orqali mutaassiblik, milliy qadriyatlar va e'tiqodiy qarashlarga zid keluvchi g'oyalarni shakllanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, yoshlar o'rtasida diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga doir mavzularda pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugungi kunda mamlakatimizning ilm-fan jabhasida 100 dan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, bugungi kunda

65 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 31 ta ilmiy markaz (shundan 14 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz) va 8 ta boshqa turdagi ilmiy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, oliy

ta'lim muassasalari va ularning filiallarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida yurtimiz olimlarining xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalari soni va salmog'i ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda yosh olimlarimiz va tadqiqotchilarimiz xalqaro anjumanlar hamda simpoziumlarda faol ishtirok etib, tajriba almashib kelayotganligini hamda xalqaro grantlarni yutib olib, ilmiy izlanishlarini davom ettirish imkoniyatlariga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlash mumkin. Globallashuv davrida, ilm-fan va innovasiyalar sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ustuvor vazifalar qatorida yana bir muhim, jabhaga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni bugungi kunda jahon miqyosida mafkuraviy poligonlarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri har bir davlat va jamiyatning eng muhim va dolzarb muammolaridan sanaladi [1]. Chunki har qanday ideal ya'ni omol jamiyat barpo etish uchun eng avvalo yosh avlodni tarbiyasini etakchi o'ringa qo'yish lozim.

Natijalar va muhokama

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishiga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" degan fikrlarini naqadar chuqur ma'no kasb etishini, dunyoda bo'lib turgan voqea hodisalardan bilish mumkin. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoq umuman, virtual olam har bir insonni hayotiga kirib borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa aksariyat yoshlar hayotini busiz tasavvur qila olmaydi. Qadimdan ma'lum bo'lgan an'ana ya'ni yoshlarga maktab, ilm maskani ta'lim bergan bo'lsa, tarbiyani esa qadriyatlarimiz asosida berilgan [2]. Bugungi kunda uchinchi tomon ya'ni virtual olam yoshlarni ta'lim va tarbiyasiga ijobiy jihatdan ko'ra salbiy tomondan o'z ta'sirini o'tkazib qo'ymoqda. Bu holatdan chetdan turib unumli foydalanayotgan "kuchlarning" maqsadiga etish uchun eng maqbul usul sifatida gavdalanmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha hozirgi kunda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar mavjud bo'lsa, ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda internet tarmog'ida ma'naviyatsizlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida, yoshlar orasida "ommaviy madaniyat" kabi illatning shakllanishida shuningdek, ular ongida turli yot g'oyalarni o'rnashib olishiga, ayniqsa e'tiqodiy va mafkuraviy tomondan noto'g'ri tomonga og'ishlarni keltirib chiqarish uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. Aksariyat mutassiblikka moyil va beriluvchan yoshlar 16 yoshdan 24 yoshgacha tashkil qilmoqda. Yoki ko'pgina yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga asosan 17-35 yoshdagi shaxslarni yollamoqda [3]. Eng achinarlisi ularning ruhiy holati o'zgarib, agressivlik kayfiyati tug'ilib o'sgan vataniga nisbatan norozi kayfiyatda bo'lish, hatto o'z ota-onasini hurmat qilmaslik, yurtimiz ulamolariga nisbatan haqoratli va obro'sizlantiruvchi fikrlarni to'g'ri deb o'ylashi va shu fikrlarga qarshi chiqqanlarni, garchi eng yaqin qarindoshlari bo'lsa ham ulardan voz kechishgacha borayotganliklari afsuski bizning jamiyatizda uchrab turibdi. Shu kabi misollarni ko'p keltirish mumkin. Bunday hollarda yoshlar ongiga yot g'oyalarni o'rnashib olishi, ya'ni mutaassiblik belgilarida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda mutassiblikning quyidagi belgilari ko'proq namoyon bo'lmoqda. Jumladan:

- konstitusiyaviy tuzumni inkor etish;
- davlat tizimini kuforda ayblash;
- davlat va milliy bayramlarga qarshilik ko'rsatish ya'ni Milliy va davlat miqyosida nishonlanadigan bayramlarni (Navro'z, Yangi yil, 8 mart kabi) harom deyish;
- vatanga muhabbatni inkor etish;
- sog'liq va hayotga xavf tug'ilganda ham tibbiy xizmatlarni inkor etish;
- dunyoviylikning har qanday ko'rinishini rad etadi va mutaassib yondashuvga moyil bo'lish;

- aql, mushohada va dunyoviy ilmni inkor qilish kabi holatlar hamda o'z qarashlariga rozi bo'lmaganlarga nisbatan kuch ishlatish;
- agressiv harakat va zo'ravonlikni oqlashini misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, mutaassiblikning yoshlar o'rtasida uchrab turadigan yana bir o'ta salbiy oqibatlarini ya'ni: amaldagi davlat tuzumiga qarshi tajovuz belgilarini namoyon bo'lishini quyidagi misollardan ko'rish mumkin;
- hukumat shariat asosida boshqarilmasa (konstitutsiya, demokratik tamoyillar va boshqa);
- mamlakatni kufirda ayblash;
- davlat islomiy va xalifalik qonunlarini bilan boshqarilishini;
- xalifa amri ostida yashashlik vojib deb da'vo qilish;
- muayyan ekstremistik va terroristik uyushmaning xalifalik, islomiy davlat g'oyalarini ochiqdan-ochiq ilgari surish, ularni qo'llash, targ'ib qilish kabi o'ta agressiv va radikal ruhdagi fikrlaydigan yoshlar shakllanib qolishi kuzatilmoqda. Ushbu g'oyalar asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali manipulyatsiya qilish yo'li bilan yoshlarga singdirilmoqda [4]. Ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalangan holda, internet orqali turli tillarda targ'ibot olib borishni hamda mukammal ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzishni, faoliyatining asosiy vazifalari sifatida shakllantirgan. Ular asosan turli internet saytlari, "telegram", "instagram", "facebook", "twitter" kabi ijtimoiy tarmoqlarda tashkil etilgan turli nomlardagi forum va guruhlar hamda "You Tube" portalidan keng foydalanilmoqda [2].

Bu kabi holatlarni namoyon bo'lishi o'z navbatida, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan muhim vazifalar qatorida yana bir muhim, jabha sifatida bugun globallashtirish zamonida yoshlarni yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarini oldini olish, jamiyatda radikalizm va mutaassiblik kabi qadriyatlarimiz va e'tiqodimizga zid bo'lgan qarashlarga berilib ketishiga yo'l qo'ymaslik eng muhim va dolzarb masala bo'lib turibdi. Shu munosabat bilan, shu yo'nalishda yoshlarni sog'lom e'tiqodli va yuksak tafakkurli qilib tarbiyalashda, shuningdek, globallashtirish sharoitida yoshlarni tarbiyalashda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik texnologiyalar yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, ushbu yo'nalishda maktab ta'limi va oliy ta'lim yo'nalishida aniq bir uslubiy ishlanma va pedagogik qo'llanmalar deyarli yo'q. Ta'lim tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bu yo'nalishdagi xavflarni to'liq bartaraf etolmaydi [5]. Shuningdek, yoshlarni yot g'oyalardan asrash va ularni sog'lom tafakkurli qilib tarbiyalashda eng avvalombor diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan ishlab chiqilgan ong ostini dasturlash tamoyili orqali o'zining radikal g'oyalarini qay tarzda aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishini chuqur o'rganib, shu yo'nalishda tadqiqotlar va izlanishlar olib borishga va ijobiy natijalarni tadbiriq qilishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunda ortib bormoqda. Shu o'rinda, 2024 yil davomida va 2025 yil birinchi choragida yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda ijtimoiy tarmoqlarda turli oqimlar ta'siriga tushib qolishdan saqlanish maqsadida Toshkent shahridagi ta'lim muassasalarida faoliyatining asosiy turi jamiyatda deradikalizatsiya jarayonini faol targ'ib qilish orqali, mutaassiblik, milliy qadriyatlar va e'tiqodiy qarashlarga zid keluvchi g'oyalarni shakllanishini olidini olish hamda ekstremizm va terrorizmning oqibatlarini tushuntirish bilan shug'ullanadigan Toshkent shahar "Ma'rifiy targ'ibot markazi" davlat muassasasi tomonidan yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda ijtimoiy tarmoqlarda turli oqimlar ta'siriga tushib qolishdan saqlash maqsadida 345 marotaba umumta'lim maktablarida, 65 marotaba oliy ta'lim muassasalarida, 34 ta texnikum va kasb-hunar maktablarida va talabalar yotoqxonalarida jami 57 000 nafar o'quvchi, talabalar va ularning otalari bilan uchrashuv o'tkazilib, tegishli tushuntirishlar berildi. Bu faqat Toshkent shahrida amalga oshirilgan targ'ibot tadbirlari to'g'risida olingan ma'lumot xisolanadi. Lekin respublika bo'ylab barcha maktab va oliy ta'lim muassasalarida keng qamrovli tarzda ushbu yo'nalishda targ'ibot tadbirlarini olib boishning imkoni yo'q. Shu munosabat bilan, psixologiya va pedagogika sohalarida ushbu yo'nalishda tadqiqot va izlanishlar olib borib, yangi uslub va innovatsion

yondashuv orqali chetdan kirib kelayotgan radikal g'oyalarning ong ostini manipulyasiya qilish orqali yoshlarni tafakkurini zaharlayotgan kuchlarga qarshi olimlarimiz tomonidan mafkuraviy tizim ishlab chiqilishiga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Xulosa

Globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalashda g'oyaviy immunitetni shakllantirishda kechiktirib bo'lmaydigan ushbu tashabbuslarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

- pedagogiga yo'nalishida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturiga deradikalizasiya jarayonini asl mohiyatini tushuntirish, radikalizasiya hamda mutassiblikni oldini olishga qaratilgan "Jaholatga qarshi ma'rifat va deradikalizasiya asoslari" fanini kiritish.

- pedagogika universitetlari va Xalqaro islomshunoslik akademiyasida "Jaholatga qarshi ma'rifat va deradikalizasiya asoslari" fanidan qayta tayyorlov kurslarini joriy qilish.

- oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan radikalizm va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishidan saqlashning zamonaviy usullariga oid mavzularda tegishli mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qilgan holda, muntazam ravishda dars soatlarini joriy qilish.

"Jaholatga qarshi ma'rifat va deradikalizasiya asoslari" fanini ta'lim tizimiga kiritish, jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash va yoshlar o'rtasida radikal qarashlarning shakllanishini oldini olish uchun muhim jarayon xisoblanadi. Shuningdek, jamiyatimizga yot bo'lgan g'oya va mafkuralarning asl mohiyati, shu jumladan, globallashuv sharoitida yoshlar ongini manipulyasiya qilishda turli axborot xurujlarining asl maqsadlarini fosh etishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali, informasion-ta'limiy usullarni qo'llagan holda o'quv dasturlari ishlab chiqish bugungi davrning muhim vazifalari xisoblanadi. Ushbu yo'nalishda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish orqali, yoshlar ongida ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan manipulyasiya ta'sirining oldini olishga hamda radikallashuv jarayonining psixologik jihatlari va xavfli omillari to'g'risida har tomonlama kengroq tushuncha berishga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shayx Nuriddin Xoliqnazar Yoshlarga nasihatim. Toshkent, 2024.
2. Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri (metodik qo'llanma). Toshkent, 2024.
3. Jaholatga qarshi ma'rifat (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2020.
4. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar ma'lumotlar to'plami. Toshkent, 2020.
5. Diniy bag'rikenglik va mutassiblik (yuz savolga –yuz javob). Toshkent, 2020.



An abstract graphic featuring a complex network of interconnected nodes and lines, resembling a molecular structure or a digital network, set against a dark blue background. The nodes are represented by circles of varying sizes, and the lines are thin, light blue, creating a web-like pattern that fills the upper two-thirds of the page.

**Tashkent International University of Education
Turin Polytechnic University in Tashkent
29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan www.mmit.tiue.uz**